

## BAHORGA PESHVOZ



### BAHORGA PESHVOZ

Yurtimizda bahor nafasi. Kirib kelgan ko'klamoy barchaning ro'hiyatiga o'zgacha ro'hiyat bag'ishlayotir. Insonlar qalbi ham bahor gullaridek ochilishga moyil. Mehnat va ish pallasi bo'lgan bahoroyini onalarimiz o'zgacha kayfiyat va mehr ila kutib olishadi.

Bahorga peshvoz chiqayotgan So'xliklar bu chiroyli faslni ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'ana va udumlar bilan kutib olishmoqda.

Devayron mahalla fuqarolar yig'inidagi Umbara qishlog'ida bugun kayfiyat o'zgacha. Mahalla ayollari, yosh qizlarni sumalak pishirishga chortlashdi. Qo'shiq va laparlar bilan doshqozon kavlayotgan inson borki, ko'nglida eng ezgu orzu va niyatlar qiladi. Ha, bahor ezgu tilaklar ruyobi pallasi. Bahor yaxshi orzular, ezgu maqsadlar mustajob bo'ladigan palla.

Yurtimizga xush kelibsan, Bahoroy!

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-03-04 19:29:08